

JAHON TILLARINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI

Sattorova Marjona Farhod qizi
O'zDJTU Sharq filologiyasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tillarining rivojlanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'zining lingvistik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlarning til leksikasiga, nutq madaniyatiga hamda kommunikativ jarayonlarga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, tilning soddalashuvi, yangi birliklarning paydo bo'lishi va global muloqotning kengayishi kabi masalalar yoritildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, til rivoji, leksika, nutq madaniyati, globalizatsiya, kommunikatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние социальных сетей на развитие мировых языков с лингвистической и социальной точек зрения. Рассматривается влияние социальных сетей на лексику, культуру речи и коммуникативные процессы.

Ключевые слова: социальные сети, развитие языка, лексика, речевая культура, глобализация, коммуникация.

Abstract. This article analyzes the impact of social networks on the development of world languages from linguistic and social perspectives. It examines their influence on vocabulary, speech culture, and communication processes.

Keywords: social networks, language development, lexicon, speech culture, globalization, communication.

Kirish. Bugungi globallashtirish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Til esa jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmaydi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning jahon tillari rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Ijtimoiy tarmoqlar va til o'zgarishi. Zamonaviy axborot makonida ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqotning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Bu esa tilning funksional jihatdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik muhim bo'lgani sababli nutq qisqartirilgan, soddalashtirilgan va ko'pincha norasmiy shaklda ifodalanadi. Bugungi kunda "slm", "ok", "rahmat" o'rniga "rh" kabi qisqartmalar keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, ingliz tilidagi "lol", "idk", "brb" kabi birliklar boshqa tillarga ham kirib bormoqda. Bu hodisa tilshunoslikda kod-almashtirish (code-switching) deb ataladi va u ko'p tilli jamiyatlarda keng tarqalgan. To'xtasinov (2018) ta'kidlaganidek, til doimo ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda rivojlanadi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar til evolyutsiyasining yangi bosqichi sifatida qaraladi.

Leksik boyish va yangi birliklarning shakllanishi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi tushunchalar paydo bo'lishi natijasida tilning lug'aviy tarkibi boyib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan "post", "story", "like", "blogger", "kontent", "trend" kabi so'zlar kundalik nutqda faol qo'llanilmoqda. Bu jarayon o'zbek tilida ham kuzatilib, yangi o'zlashma so'zlar shakllanmoqda. Rahmatullayev (2016) fikricha, tilning leksik boyishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yangi ijtimoiy hodisalar yangi til birliklarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ayrim so'zlarning ma'nosi

kengayib, yangi semantik yuklama kasb etmoqda. Masalan, “do‘st” so‘zi ijtimoiy tarmoqlarda virtual aloqani ham anglatadigan bo‘ldi.

Til madaniyati va normativ muammolar. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan til madaniyati masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, yozma nutqda grammatik xatolar, tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi va imlo qoidalariga rioya qilmaslik holatlari ko‘paymoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida adabiy til me‘yorlariga e‘tiborning pasayishi kuzatilmoqda. Norasmiy muloqot uslubi rasmiy yozishmalarga ham kirib kelmoqda. Bu esa nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Mahmudov (2015) ta‘kidlaganidek, til madaniyati jamiyatning ma‘naviy darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shuning uchun til me‘yorlarini saqlash va rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Madaniyatlararo muloqot va global ta‘sir. Ijtimoiy tarmoqlar turli millat va madaniyat vakillarini yagona platformada birlashtiradi. Bu esa tillararo aloqaning kuchayishiga va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga olib keladi. Natijada insonlar chet tillarini o‘rganishga ko‘proq qiziq boshlaydi. Bu esa ko‘p tillilik (multilingualizm) rivojlanishiga xizmat qiladi. Global kommunikatsiya jarayonida ingliz tili yetakchi o‘rin egallayotgan bo‘lsa-da, boshqa tillar ham o‘z o‘rnini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy til va madaniyatni targ‘ib qilish imkoniyati ham kengaymoqda. Bu esa tilni saqlash va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari. Ijtimoiy tarmoqlarning til rivojiga ta‘siri ikki tomonlama xarakterga ega.

Ijobiy jihatlari:

- tilning tez rivojlanishi;
- yangi so‘z va iboralar paydo bo‘lishi;
- chet tillarini o‘rganish imkoniyatining kengayishi;
- global muloqotning rivojlanishi.

Salbiy jihatlari:

- adabiy til me‘yorlarining buzilishi;
- grammatik xatolarning ko‘payishi;
- qisqartma va slanglarning haddan tashqari ko‘pligi;
- yozma nutq sifati pasayishi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar jahon tillarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular tilni boyitadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, til me‘yorlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda til madaniyatiga rioya qilish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2016.
2. To‘xtasinov I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent, 2015.
4. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2012.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2020.